

YANGI O‘ZBEKISTONDA ZARGARLIK SOHASINI MAHALLIY SANOATNING ASOSIY DRAYVERLARIDAN BIRIGA AYLANTIRISHNING AFZALLIKLARI

Dadamuxamedov Bobir Fasixitdinovich

San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti o'qituvchisi
zargar.bobur@mail.ru*

Annotatsiya. Maqolada Zargarlik sohasini mahalliy sanoatning asosiy drayverlaridan biriga aylantirish va bu borada amalga oshirilayotgan rag'batlar, yurtimizda tayyor zargarlik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish va sifatini yaxshilash bo'yicha ishlarni samarali tashkil etish, taqinchoqlarning dizaynida talab etilayotgan uslub, yo'nalish, texnika va texnologiyalarni ko'proq o'zlashtirish, yurtimiz iqtisodiyotida zargarlik tarmogini jadallik bilan rivojlantirish jarayonlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: drayver, texnika, texnologiya, metodologiya, innovatsiya, brend, investitsiya, sertifikatlashtirish, standartlash, preferensiya, onlayn platforma.

KIRISH. Bugungi kunda yurtimizda zargarlik sohasini mahalliy sanoatning asosiy drayverlaridan biriga aylantirish va qulay ishbilarmonlik muhitida faoliyat ko'rsatishi uchun huquqiy asoslar moliyaviy imkoniyat va rag'batlar yetarli. Ko'hna naqlarga amal qilgan holda, dunyoning mashhur brendlari bilan raqobatlashish, milliylikka uyg'un zamonaviy zargarlik buyumlari bilan dunyo bozorlarini egallash asosiy vazifa. Shu bois zargarlar tomonidan o'ta yuksak mas'uliyat, katta qunt-sabr va izlanishlar evaziga noyob hamda betakror zargarlik buyumlari yaratilmoqda.

Yurtimizda tayyor zargarlik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish va sifatini yaxshilash bo'yicha ishlarni samarali tashkil etish, uning dizaynida talab etilayotgan uslub, yo'nalish, texnika va texnologiyalarni ko'proq o'zlashtirish, xalqaro talablarga muvofiq zargarlik mahsulotlarini sertifikatlashtirish va standartlashni ta'minlash, sifat menejmentining zamonaviy usullarini keng joriy etish, shuningdek, dunyo bozorlarida raqobatbardosh bo'lgan, yuqori sifatdagi zargarlik mahsulotlari va qimmatbaho metallar hamda toshlardan yasalgan zargarlik mahsulotlari ishlab chiqarilishini tashkil etish, to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini zamonaviy texnologik uskunalardan va innovatsion izlanishlarni tatbiq

etish tajribasiga ega xorijiy investorlarni jalb etish sohaning rivojiga kerakli omil bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. O'zbekiston zargarlik san'ati va sanoatining shakllanishi, rivojlanish tamoyillari va xususiyatiga doir qator ilmiy adabiyotlar mavjud bo'lib, ular xronologik jihatdan o'rganildi va tadqiq etildi. D.Faxretdinova, A.Xakimov larning tadqiqotlarida O'zbekiston zargarlik san'atini tarixiy-madaniy davrlashtirish masalalariga to'xtalib o'tilgan bo'lib, qadimgi davrdan to XX asrning 80-yillariga qadar bo'lgan davrda zargarlik san'ati rivoji, taqinchoqlarning turkumi va maishiy hayotdagi o'rni tahlil qilingan bo'lsa, K.Akilova, N.Azizova, Ye.Ermakova (Shironina), Ye.Gorojankina, Ya.Chvir, G.Babadjanova, Sh.Shoyoqubov, Z.Aliyeva, M.Niyazova, Sh.Mahkamov, G.Yuldasheva, M.Abdullayev, D.Bobojonov izlanishlarida esa muayyan tarixiy-nazariy masalalar ko'tarilgan. Shuningdek, XIX-XX asrlarda zargarlik san'atida qo'llanilgan texnika-texnologiyalar, zargarlar va ularning ijodiy izlanishlari tahlil qilingan, D.Atamuratova, N.Yuldashova, S.Davlatova larning tadqiqotlarida O'zbekiston zargarlik san'atini o'rganish borasidagi yangi nazariy yondashuvlar, uning ma'naviyat, an'analar, zamonaviy jarayonlar bilan bog'liqligi o'z ifodasini topgan. O'zbekiston zargarlik san'atidagi etnomadaniyat mutanosibligi, taqinchoqlardagi naqshlar mazmuni (semantikasi), ma'nosi, sohadagi mavjud kasbiy-badiiy masalalar E.Gyul, B.Nodir va T.Geyzlarova larning tadqiqotlarida bayon etilgan. Yuqoridagi barcha ilmiy tadqiqotlarda zargarlik san'atiga doir masalalarni o'rganish borasida fanlararo yondashuv va san'atshunoslik jihatlariga e'tibor qaratilgan. O'zbekiston zargarlik san'atini ilmiy o'rganishda xalqaro va respublika doirasidagi ko'rgazmalar, festivallar, albomlar va kataloglarga ham tayanildi.

NATIJALAR. 1963 yili Toshkentda artellar uyushmasi tomonidan zargarlik fabrikasi tashkil etilib, undagi zargarlar sodda va ixcham ko'rinishdagi qizil ko'zli ziraklar, uzuklar, bilakuzuklar yasay boshladilar. An'anaviy shakl elementlarini o'zida namoyon etgan bu kabi taqinchoqlar respublikadan chetga ham chiqarib sotilgan. Shu orqali u O'rta Osiyodagi birinchi zargarlik zavodi sifatida faoliyat yuritdi. Buyumlar oltin, tompak, melxior, neyzilber, jez, mis, kumush singari ma'danlardan yasalib, billur, yoqut, sapfir, topaz, ametist, anor tosh, aleksandrit kabi toshlarni qirralab ishlov berish orqali, shuningdek, dur, feruza, rangli shishalar bilan bezatigan. Zavodda zargar ustalar, kimyogar-texnologlar, toshlarga ishlov beruvchilar, chizmalar yaratuvchi rassomlar hamkorlik asosida ishlab, tez yasaladigan, hamyonbop, qulay va o'z davri uchun mashhurlik cho'qqisiga chiqqan taqinchoqlarni yaratishda birgalikda xizmat qilganlar.

Bu davrda sanoatlashgan tizimga xos bo'lgan qizil ko'zli, sodda va ixcham, bir qolipdan chiqqan taqinchoqlarni yasalishi kabi salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Shu davrning o'zida aholining barcha qatlami uchun mo'ljallangan, hajm jihatidan katta bo'lmagan, ammo badiiy jihatdan mukammal bo'lgan Buxoro zargarlik maktabiga xos "Shibirma" sirg'asi, "Tapishi dil" bo'yin bezagining yaratilishi va keng muomalaga kiritilishi sohaga ijobiy ta'sirini ko'rsatganligini ko'rish mumkin. Sababi shu taqinchoqlar orqali sohaning badiiylik darajasi nisbatan ushlab turilishiga qisman bo'lsada erishildi.

1972 yilda fabrika ko'pgina tsexlardan iborat katta zavodga aylantirildi. Bu davrda M.M.Troshin zavodning bosh rassomi sifatida faoliyat olib borgan. 1970-yillarning oxiri – 1980-yillarning boshlarida M.Troshin, U.Shoakbarov, I.Djavarov, A.Shapovalov, D.Sadikov, X.Malikov, Yu.Korolyev, A.Naumsev, A.Levicheva, Sh.Sagdullayev, A.Krivososov, V.Krivososova, N.Barikin, A.Vaxitov, Ye.Pshakina va boshqalar zargarlik taqinchoqlarining 150 ga yaqin nusxalarini yasash ustida izlanishlar olib borganlar. 1970-yillarda Qimmatbaho metallar tsexida Ya.Manapov, M.Djavarov, A.Vaxitov, Z.Djalaliddinov, G.Levin, M.Xoronov, X.Karimov, G.Sungarovlar boshdan oxirigacha oltindan takrorlanmas taqinchoqlar yaratganlar. Kubachidagi dog'istonlik I.Djavarov ushbu tsexni va undagi ustalar guruhini boshqargan.

1978 yilda O'zbekiston xalq san'ati ustalari birlashmasi tashkil qilinib, uning oldiga milliy san'atning unutilgan an'analarini va asrlar davomida yo'qolib ketgan turlarini tiklash vazifasi qo'yildi. Shu maqsadda o'z san'ati sohasida izlanayotgan yosh va iste'dodli ustalar birlashmaga taklif qilindi. Xalq amaliy san'ati bilan shug'ullanuvchi barcha ustalar, shu jumladan ko'plab zargarlar "Usto" birlashmasi qanoti ostiga to'plangach, ularning iste'dodi chinakkam yuksaldi, chunki bu birlashma yangilikka intiluvchi ustalarga imkoniyat yaratib, har tomonlama ko'maklashardi.

1997 yilda tashkil etilgan "Musavvir" xalq san'ati ilmiy-ishlab chiqarish markazi, xalq hunarmandlarining Respublika "Hunarmand" uyushmasi, keyingi yillarda esa "Nigoriston" Respublika xalq san'ati firmasida ko'plab hunarmandlar va xalq amaliy san'ati ustalari qatorida zargarlar ham o'z faoliyatlarini samarali olib bordilar. Bugungi kunda bu kabi tashkilotlar qatoriga zargarlik sanoatiga oid masalalar bilan shug'ullanadigan tashkilot – "O'zbekzargarsanoati" uyushmasini ham kiritish o'rinlidir. Mazkur uyushma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 noyabrdagi "2018-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasi zargarlik sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3388-son Qarori bilan tashkil etilgan bo'lib, quyidagilar "O'zbekzargarsanoati" uyushmasining

asosiy faoliyat yoʻnalishlari etib belgilandi: Oʻzbekistonning turli hududlarida zargarlik sanʼatining koʻp asrlik anʼanalarini saqlash va rivojlantirish, zargarlik tarmogʻini rivojlantirish boʻyicha qabul qilingan dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirishni muvofiqlashtirish, ilmiy-texnikaviy, texnologik, investitsiyaviy va eksport siyosatini izchil olib borish, tayyor zargarlik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish va sifatini yaxshilash boʻyicha ishlarni samarali tashkil etish, uning dizaynida talab etilayotgan yoʻnalishlar va texnologiyalarni koʻproq oʻzlashtirish, xalqaro talablarga muvofiq zargarlik mahsulotlarini sertifikatlashtirish va standartlashni taʼminlash, sifat menejmentining zamonaviy usullarini keng joriy etish, mahsulotlarni sotish bozorlarini kengaytirish boʻyicha marketing tadqiqotlari oʻtkazish, ichki va tashqi bozorlarda zargarlik buyumlariga boʻlgan narxlarni monitoring qilish, zargarlik mahsulotlari eksporti hajmlarini oshirish, zargarlik mahsulotlariga boʻlgan narxlarni shakllantirishga oid maqbul mexanizmni ishlab chiqish boʻyicha takliflar va tavsiyalar berish, dunyo bozorlarida raqobatbardosh boʻlgan, yuqori likvidli zargarlik mahsulotlari va qimmatbaho metallar va toshlardan yasalgan sanʼat mahsulotlari ishlab chiqarilishini tashkil etish, toʻgʻridan-toʻgʻri chet el investitsiyalarini hamda zamonaviy texnologik uskunalar va innovatsiyaviy izlanishlarni tatbiq etish tajribasiga ega xorijiy investorlarni jalb etish, "Oʻzbekzargarsanoati" uyushmasi tarkibiga kiruvchi tashkilotlarga normativ-huquqiy bazani takomillashtirish boʻyicha takliflarni ishlab chiqish orqali davlatdan yordam olishida koʻmaklashish, imtiyoz va preferensiyalar taqdim etish, xalqaro moliya institutlari mablagʻlarini hisobga olgan holda, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, zargarlik sanoati uchun tizimli professional kadrlar tayyorlashni tashkil etish va yangi ish oʻrinlari yaratish va hokazo.

MUHOKAMA. Bugungi kunda yurtimizda zargarlik sanʼatini sanoatlashtirgan tartibda keng koʻlamda ishlab chiqarish maqsadida turli korxonalar ishga tushirilgan. Bular qatoriga Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar qoʻmitasi huzuridagi "Fonon" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi (keyinchalik "Fonon" davlat ilmiy-ishlab chiqarish korxonasi nomi bilan atalgan), "1-sonli Toshkent zargarlik korxonasi", "2-sonli zargarlik zavodi", "3-sonli zargarlik zavodi", "Fariza-TT" masʼuliyati cheklangan jamiyati, "Kumush" Oʻzbekiston-AQSh qoʻshma korxonasi, "Eyshn-Reyz" Oʻzbekiston-AQSh qoʻshma korxonasi, "Nur" davlat badiiy zargarlik markazi, Shaxrisabz zargarlik korxonasi, Burchmulladagi "Olmos" zavodi, "Soʻzana", "Binokor" shoʻba korxonalari, 1992 yilda ishga tushgan Zarafshon shahridagi Navoiy zargarlik zavodi (avvalgi "Zarispark" Oʻzbekiston-AQSh qoʻshma

korxonasi), "Berill gold" xususiy ishlab chiqarish korxonasi, "Ustozoda" kabi markazlarni misol qilib olishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2019 yil 18 maydagi "O'zbekiston Respublikasida zargarlik tarmog'ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5721-son Farmoni ijrosini ta'minlash doirasida mamlakatimiz hududida sifatli va raqobatbardosh zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida Markaziy Osiyodagi eng yirik bo'lgan Toshkent shahridagi sobiq "Fonon" ilmiy-ishlab chiqarish korxonasi hududida zargarlik zavodi tashkil etildi. 2021 yilning 15 yanvar kuni "Gold Moon Tashkent" MChJga qarashli bo'lgan ushbu zavodning tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Shuningdek, 2020 yilda Namangan shahrida tashkil etilgan, o'zbek milliy brendini dunyoga tanitishni maqsad qilgan "Gavhar Jewel Group" MCHJ qoshida 2021 yil 15 sentyabrda "Gavhar" kompaniyasi o'zining ish faoliyatini boshladi. Qimmatbaho metallar va toshlarni xarid qilish, qayta ishlash va boshqa barcha zargarlik faoliyat turi bilan shug'ullanuvchi ushbu korxonaning loyiha qiymati 6,5 million AQSH dollarini tashkil etdi. Mahsulot sifatli va xaridorgir bo'lishi uchun Italiya, Germaniya va Turkiya davlatlaridan korxonaga dastgohlar keltirib o'rnatildi. Qolaversa, ishlab chiqarish jarayoniga ushbu davlatlardan yuqori malakali mutaxassislar ham jalb etildi. Xorijdan kelgan mutaxassislar korxonada xodimlarining klassifikatsiyasini oshirishda katta yordam beradi. Mazkur korxonada faoliyat boshlashi natijasida 40 dan ziyod aholi ish bilan ta'minlandi hamda 150 dan ziyod mahalliy zargarlar bilan kooperatsiya asosida ishlash yo'lga qo'yildi.

Bugungi kunda yurtimizda zargarlik sohasini yangi bosqichga olib chiqishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Sababi zargarlik mahsulotlari butun dunyoda haridorgir. Mamlakatimizda bu soha ko'p yillar e'tibordan chetda qolgan edi. Zargarlik korxonalarida asbob-uskunalarining 80 foizi eskirgan, ayrimlarida ishlab chiqarish to'xtagan edi. Prezident Shavkat Mirziyoev 2019 yil 8 may kuni o'tkazilgan yig'ilishda zargarlikni chinakam sanoat darajasiga olib chiqish vazifasini qo'ygan bo'lib, ko'p o'tmay, ya'ni 18 mayda davlat rahbarining "O'zbekiston Respublikasida zargarlik tarmog'ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5721-son Farmoni qabul qilindi. Unga muvofiq, sohaga chet el investitsiyalarini faol jalb etish, raqobatbardosh va sifatli zargarlik buyumlarini tayyorlashda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Shu asnoda 2021 yilning 15 yanvar kuni poytaxtimizning Chilonzor tumanida sobiq "Fonon" ilmiy-ishlab chiqarish korxonasi negizida ishga tushirilgan "Gold Moon Tashkent" mas'uliyati

cheklangan jamiyati ana shu imkoniyatlar natijalaridan biri. Qiymati qariyb 21 million dollar bo'lgan mazkur loyiha doirasida yiliga 6 tonna zargarlik buyumlari ishlab chiqarish quvvati tashkil etilgan. Italiya, Germaniya va Turkiyadan zamonaviy asbob-uskunalar keltirib o'rnatilgan. Ishga 200 dan ortiq mohir zargar jalb qilingan. Italiyalik dizayner va texnik xodimlar ularga o'z mahorat va tajribalarini o'rgatmoqda. Mazkur korxonada mahsulotlari zamonaviyligi, sifati va nafisligi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda ularning haridori ko'payib, import o'rnini bosmoqda.

Zavodning umumiy maydoni 3185 kvadrat metr hududni qamrab olgan bo'lib, ishlab chiqarish jarayoni 21 ta bo'limda olib boriladi. Har bir bo'limda o'ziga xos operatsiyalar bajariladi. Hozir 4 ta yo'nalishda mahsulot ishlab chiqarilayotgan bo'lib, bular: quyma modellar, avtomatik tarzda to'qiladigan zanjirlar, bosma yordamida ishlab chiqariladigan zargarlik buyumlari va ichi g'ovakli zargarlik buyumlari.

Ushbu korxonada ish boshlashi mahalliy hunarmandlar uchun ham qulaylik yaratdi. Ya'ni, korxonada ularga yarim tayyor mahsulot yetkazib beradi. Shuningdek, zavod binosida savdo do'koni ham tashkil etilgan. Bu yerda nafis uslubda ishlangan, jozibadorligi va sifati bilan barchaga birdek manzur bo'luvchi zargarlik buyumlari savdosi ham yo'lga qo'yilgan. Savdo do'konida har bir mijozga individual xizmat ko'rsatiladi hamda konsultant-sotuvchilar tomonidan mijozning didi va xohishiga ko'ra, eng nodir zargarlik mahsulotlari tavsiya etiladi.

Korxonada "Fonon" tovar belgisi ostida o'zbek an'anaviy zargarlik buyumlarini Yevropa va Italiya dizayni bilan yanada boyitish, asillik darajasi va sifatini kafolatlash, oltinga ishlov berish usullarini ko'paytirish orqali noodatij taqinchoqlar ishlab chiqarish, har xil o'lchamdagi yombi (slidka)lar savdosini yo'lga qo'yish, Hindiston, Afrika va Shri-Lankada ishlov berilgan qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlardan foydalanib, taqinchoqlar yaratishni yo'lga qo'yishni maqsad qilgan bo'lib, bugungi kunda ularning xaridori ko'payib, import o'rnini bosayotganligini alohida e'tirof etish joiz.

Shuningdek, 2022 yilning 27 iyun kuni Xivada "Gold City Khazarasp" zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish korxonasi loyiha taqdimoti o'tkazildi. Ayni paytda ushbu loyihaning umumiy qiymati to'rt yuz million so'm bo'lib, yillik oltin ishlab chiqarish hajmi 15 kilogramni tashkil etadi. Loyiha joriy yilning sentabr oyida ishga tushishi rejalashtirilgan.

10 iyul kuni Namangan shahridagi "Gold Invest Silver" korxonasi qoshida tashkil etilgan "Gold Center", 17 noyabr kuni esa Toshkentda Markaziy Osiyodagi eng yirik "Chorsu Gold Center" olin savdo markazlari ishga tushirildi. Savdo

makazlaridagi do‘konlarda Italiya, Turkiya va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari, shuningdek, yurtimizning “Fonon”, “Gavhar”, “Butterfly”, “Silkway Jewellery Manufacture” MChJga qarashli “Sofizar”, “Gold Invest”, “Nonna Gold” kabi zavodlarning mahsulotlari sotuv jarayoni yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, “Fonon” ilmiy-ishlab chiqarish korxonasi negizida ishga tushirilgan “Gold Moon Tashkent” MCHJ, “Nur star jewelry” MCHJ, “Global universal servis” MCHJ, “Silk way jewellery manufacture” MCHJ, “Caravan silver” MCHJ, “Berill gold” MCHJ, “Khivah gold” MCHJ, “Tashyuvelirtorg” MCHJ, “Sofizar jewellery”, “Butterfly original”, “Rayyon jewellery”, “Alifa jewellery”, “Ornament Ij”, “Gavhar Jewel Group”, “Shosh jewellery”, “Zimar gold”, “Barxan jewellery”, “Colibri Gold Uz”, “Carato”, “Almaz Gold 585”, “Dolphin jewellery”, “Lali jewelry”, “Alifa jewelry”, “Monand Jewellery” kabi ko‘plab zargarlik brendlari yurtimizda zargarlik san’ati va sanoatini rivojlantirish, innovatsion taqinchoqlarni yaratish va ishlab chiqarish uchun berilayotgan imkoniyatlar natijalaridan biri hisoblanadi.

XULOSA. Yuqoridagi masalaga doir fikr-mulohazalarga tayanib quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. An‘analarini saqlagan holda zamonaviy, innovatsion zargarlik mahsulotlarini yaratish;
2. Internet tarmog‘ida O‘zbekiston zargarlari ijodini targ‘ibot qiluvchi hamda mahsulotarni yorituvchi onlayn platformaga ega veb-sayt tashkil qilish;
3. San‘atshunoslarning tadqiqotlari va rivojlangan davlatlarning tajribalariga tayanib sohaga oid zarur o‘quv adabiyotlar yaratish;
4. Zargarlik sanoati uchun tizimli professional kadrlar tayyorlashni tashkil etish;
5. Zargarlik san‘ati va zargarlik sanoatini o‘zaro integrasiyasini shakllantirish;
6. Zargarlik sohasida zamonaviy texnologik uskunalar va innovatsion izlanishlarni amaliyotga tatbiq etish;
7. Milliy zargarlik san‘ati an‘analari asosida zamonaviy mahsulotlarni sanoatlashtirilgan tizimda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish;
8. Zargarlik sanoatiga milliy zargarlik an‘analarini kiritish orqali “O‘zbek zargarlik brendi”ni yaratish;
9. Zargarlik korxonalarida ishlab chiqariladigan mahsulotlarni “O‘zbek zargarlik brendi” nomi ostida jahon zargarlik bozoriga olib kirish va sohada eksportni rivojlantirish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 avgustdagi PQ-3199-son “Zargarlik sanoatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari

to'g'risida"gi Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.03.2018 y., 07/20/3577/0871-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 noyabrdagi PQ-3388-son "2018-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasi zargarlik sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.11.2017 y., 07/17/3388/0257-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 martdagi PQ-3577-son "Zargarlik sanoatini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.03.2018 y., 07/20/3577/0871-son.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 maydagi PF-5721-son "O'zbekiston Respublikasida zargarlik tarmog'ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Xalq so'zi, №103 (7333), 2019 yil, 21 may. – 2-3 b.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 22 fevraldagi PQ-4998-son "Zargarlik sanoatini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // Yangi O'zbekiston, №39 (295), 2021 yil, 24 fevral. – 2 b.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 apreldagi PQ-5098-son "Xalqaro zardo'zlik va zargarlik festivalini o'tkazish to'g'risida"gi Qarori // Xalq so'zi, №90 (7870), 2021 y, 30 aprel. – 2 b.

7. 2021 yilda 23 avgustdagi O'RQ-710-son "Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar to'g'risida"gi Qonuni // Xalq so'zi, №179-180 (7959-7960), 2021 yil, 24 avgust. – 3-6 b.

8. Dadamuxamedov F. O'zbekiston zamonaviy zargarlik san'ati // K.Behzod nomidagi MRDI Axborotnomasi. – T.: K.Behzod nomidagi MRDI, 2023. – 3-8 b.

9. Dadamuxamedov B. XIX – XXI asr boshlari O'zbekiston zargarlik maktablarining mahalliy xususiyatlari // San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – T.: K.Behzod nomidagi MRDI, 2023. – 144 b.

10. Фахретдинова Д. Ювелирное искусство Узбекистана. – Т.: Издательство литературы и искусства имени Г.Гуляма, 1988. – 204 с.